



SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI DIREKTORINING BUYRUG'I

Markaz kengashining 2025-yil 16-iyundagi 3-sonli navbatdan tashqari yig'ilish qarorlarini ijroga yo'naltirish to'g'risida

Markaz kengashining 2025-yil 16-iyundagi 3-sonli navbatdan tashqari yig'ilish qarorlarini ijroga yo'naltirish maqsadida **buyuraman:**

1. Markaz kengashining 2025-yil 16-iyundagi 3-sonli navbatdan tashqari yig'ilish qarori ijro uchun qabul qilinsin.
2. Markaz kengashi qarorida belgilangan topshiriqlarning ijrosini o'z vaqtida va sifatli ta'minlash belgilangan mas'ullar tomonidan amalga oshirilsin.
3. Mas'ullar tomonidan amalga oshirilgan ishlar haqidagi hisobotlarni 10 kun muddatda Kengash kotibi (D.Yunusova)ga taqdim etilsin.
4. Kengash qarori ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar haqidagi hisobotlarni umumlashtirib, ijrosining monitoringini yuritish Kengash kotibi (D.Yunusova)ga yuklatilsin.
5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Markaz direktori v.v.b.



S.Murodov

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
16-iyunda o'tkazilgan navbatdan tashqari yig'ilishi
Q A R O R I**

2025-yil 16-iyun

3/1 -son
Samarqand shahri

**“Dolzarb 90 kunlik” loyihasi asosida tayyorlangan
“Pedagoglarning kasbiy-metodik ko'nikmalarini
rivojlantirish” nomli maqsadli o'quv kurs dasturini
tasdiqlash to'g'risida**

Markaz direktori v.v.b. S.Murodovning ““Dolzarb 90 kunlik” loyihasi asosida tayyorlangan “Pedagoglarning kasbiy-metodik ko'nikmalarini rivojlantirish” nomli maqsadli o'quv kurs dasturini tasdiqlash to'g'risida”gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Markaz direktori v.v.b. S.Murodov so'zga chiqdi: – Sizlarga ma'lumki, 2025-yil 15-may kuni Prezidentimiz rahbarligida maktab ta'limi tizimidagi islohotlarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida ta'limning barcha bosqichlariga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi hamda “Dolzarb 90 kunlik” dasturi e'lon qilindi. Ushbu dastur hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-79-son Farmoni, 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi 231-son qarori, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi “Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun Kasbiy rivojlanish kuni va Kasbiy rivojlanish soati tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to'g'risida”gi 246-son buyrug'i, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 20-maydagi 164-sonli buyruqlari shuningdek, maktab ta'limi tashkilotlari pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish, maktab ta'limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda maqsadli o'quv kurs dasturi tuzildi. Dastur mazmuni ta'lim darajasi yuqori bo'lmagan maktablarda O'zbekiston Respublikasining ta'lim-tarbiya sohasidagi davlat siyosati, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy hujjatlari, pedagogning kasbiy kompetentligi va mahorati, ta'lim-tarbiya jarayoniga psixologik yondashuv, o'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, fanni o'qitishda innovatsion yondashuvlar, fanni o'qitish metodikasi o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy usullarini o'z ichiga oladi va ular bo'yicha tegishli yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Ushbu maqsadli o'quv kurs dasturini tasdiqlash uchun Kengash muhokamasiga tavsiya etaman.

Kengash raisi S.Murodov – ushbu masala bo'yicha savollar, fikrlar bo'lsa marhamat. Yuqoridagilar muhokama etildi va Kengash yig'ilishi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Markaz direktori v.v.b. S.Murodovning ““Dolzarb 90 kunlik” loyihasi asosida tayyorlangan “Pedagoglarning kasbiy-metodik ko'nikmalarini rivojlantirish” nomli maqsadli o'quv kurs dasturini tasdiqlash to'g'risida”gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "Pedagoglarning kasbiy-metodik ko'nikmalarini rivojlantirish" nomli maqsadli o'quv kurs dasturi tasdiqlansin.

3. "Pedagoglarning kasbiy-metodik ko'nikmalarini rivojlantirish" nomli maqsadli o'quv kursning tashkil etishilishi haftaning chorshanba kuni deb belgilansin.

4. Maqsadli o'quv kursning dastur asosida tashkil etishilishini nazorat qilish barcha kafedra mudiri va bo'lim boshliqlariga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror ijrosi nazoratini o'z zimmamga qoldiraman.

Kengash raisi
Kengash kotibi



S.Murodov
D.Yunusova

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
16-iyunda o'tkazilgan navbatdan tashqari yig'ilishi**

Q A R O R I

2025-yil 16-iyun

3/2 -son
Samarqand shahri

**Ijtimoiy himoya qilish maqsadida kasbiy
qayta tayyorlash kursi to'lovini 50%ga
qisqartirish to'g'risida**

Markaz direktori v.v.b. S.Murodovning "Ijtimoiy himoya qilish maqsadida kasbiy qayta tayyorlash kursi to'lovini 50%ga qisqartirish to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Markaz direktori v.v.b. S.Murodov so'zga chiqdi: – Qayta tayyorlash Rus tili (kasbiy) yo'nalishi tinglovchisi Suyarova Nadifa Asrarovna (2024-yil 16-noyabrdagi 71-T son buyrug'i asosida o'qishga qabul qilingan) oilaviy sharoiti, ijtimoiy ahvoli (oilada yagona boquvchi, ayollar daftarida turadi, mahallada kam ta'munlanganlar ro'yxatida turadi) og'ir bo'lganligi uchun kontrakt to'lovini kamaytirish maqsadida ariza bilan murojaat qilgan. Jarayonni o'rganib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 10-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi faoliyati hamda "Ayollar daftari" bilan ishlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 833-sonli qarori asosida tinglovchini ijtimoiy himoya qilish maqsadida kontrakt to'lovini 50% ga qisqartirish masalasini kun tartibiga qo'ydik.

SO'ZGA CHIQDI: bosh hisobchi B.Norov - kontrakt to'lovini 50%ga qisqartirish bilan bog'liq hujjatlarni amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq rasmiylashtirsa, bu ishni amalga oshirish mumkin.

Ko'rilgan masala yuzasidan yig'ilish

Q A R O R Q I L A D I:

1. Markaz direktori v.v.b. S.Murodovning "Ijtimoiy himoya qilish maqsadida kasbiy qayta tayyorlash kursi to'lovini 50%ga qisqartirish to'g'risida"gi axboroti ijro uchun qabul qilinsin.
2. Qayta tayyorlash Rus tili (kasbiy) yo'nalishi tinglovchisi Suyarova Nadifa Asrarovnaning kontrakt to'lovini 50%ga qisqartirishga ruxsat berilsin.
3. Kontrakt to'lovini 50%ga qisqartirish bilan bog'liq hujjatlarni amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq rasmiylashtirish ishlari 10 kun muddatda amalga oshirish bosh hisobchi B.Norov zimmasiga yuklatilsin.
4. Ushbu qaror ijrosi nazoratini o'z zimmasiga qoldiraman.

**Kengash raisi
Kengash kotibi**



**S.Murodov
D.Yunusova**

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
16-iyunda o'tkazilgan navbatdan tashqari yig'ilishi**

Q A R O R I

2025-yil 16-iyun

3/3.1 -son
Samarqand shahri

**Kengash a'zolari tarkibiga
o'zgartirish kiritish to'g'risida**

Markaz direktori v.v.b. S.Murodovning "Kengash a'zolari tarkibiga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Markaz direktori v.v.b. S.Murodov so'zga chiqdi: – Kengash a'zolari tarkibini quyidagicha tanishtirdi:

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashi a'zolari
RO'YXATI**

№	Familiyasi, ismi sharifi	Ilmiy darajasi, unvoni, lavozimi
1	Murodov Sarvar Saydullo o'g'li	Pedagogika markaz direktori v.v.b., kengash raisi
2	Ibragimov A'lamjon Amrulloevich	Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası professori (a'zo)
3	Raximqulova Maxbuba Baxranovna	Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrası mudiri (a'zo)
4	Fayzullayeva Gulchehra Sharipboyevna	Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası mudiri (a'zo)
5	Tagayev Ganisher Xasanovich	Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrası mudiri (a'zo)
6	Samyayev Anvar Qadirovich	Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrası mudiri (a'zo)
7	Raximova Mohinabonu Abduxamid qizi	Tillarni o'qitish metodikasi kafedrası mudiri (a'zo)
8	Davronov Pirnazar Ziyatovich	Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrası professori (a'zo)
9	Usmonov Bahodir Islomovich	Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrası dotsenti (a'zo)
10	Alimova Dilbar Xalimovna	Tillarni o'qitish metodikasi kafedrası dotsenti (a'zo)
11	Haydarov Komil Donaboyevich	Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrası v.b.professor (a'zo)
12	Suvonova Kamola Raimqul qizi	Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrası dotsenti (a'zo)
13	Xurramov Anvar Vafakulovich	Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası katta o'qituvchisi (a'zo)
14	Kandaxarov Mirjalol Abdimurot o'g'li	Markaz kasaba uyushmasi kengashi raisi (a'zo)
15	Yunusova Durdona	Tillarni o'qitish metodikasi kafedrası dotsenti

Axtamovna	(kengash kotibi)
-----------	------------------

Markaz kengash raisi S.Murodovning "Kengash a'zolari tarkibiga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi axboroti tinglandi.

Yuqoridagi jadvalda berilgan ro'yxatga asosan, kengash 15 nafar a'zo bilan ishni davom ettiradi.

Kengash raisi S.Murodov – ushbu masala bo'yicha savollar, fikrlar bo'lsa marhamat.

Ushbu masala atroflicha muhokama etilib Markaz Kehgashi

QAROR QILADI:

1. Kengash raisi S.Murodovning "Kengash a'zolari tarkibiga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Markaz Kehgashi 15 nafar a'zo bilan ishni davom ettirsin.

Kengash raisi

Kengash kotibi



S.Murodov

D.Yunusova

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
16-iyunda o'tkazilgan navbatdan tashqari yig'ilishi**

Q A R O R I

2025-yil 16-iyun

3/3.2 -son
Samarqand shahri

**Pedagogik markaz professor-o'qituvchilarini
ilmiy unvonga tavsiya etish to'g'risida**

Markaz direktori v.v.b. S.Murodovning "Pedagogik markaz professor-o'qituvchilarini ilmiy unvonga tavsiya etish to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Markaz direktori v.v.b. S.Murodov so'zga chiqdi: – Hurmatli yig'ilish qatnashchilari bugungi yig'ilishda ko'riladigan masalalardan har xil masalalar bo'limining 3.2.bandi Pedagogik markaz professor-o'qituvchilarini ilmiy unvonlarga tavsiya etish to'g'risida bo'lib, Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedra professori v.b. Ibragimov A'lamjon Amrilloevichni professorlik ilmiy unvoniga tavsiya etish to'g'risida.

Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedra professori ilmiy unvoniga nomzod Ibragimov A'lamjon Amrilloevich haqida ma'lumot:

Ibragimov A'lamjon Amrilloevich 1974-yilda tug'ilgan, o'zbek. 1996-yil Samarqand davlat universitetining pedagogika fakultetini umumtexnika fanlari va mehnat o'qituvchisi mutaxassisligi bo'yicha bitirgan.

2018-yil dekabridan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), 2022-yildan pedagogika fanlari doktori. Samarqand davlat universiteti qoshidagi ixtisoslashgan kengashda "Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish tizimini ko'p vektorli yondashuv asosida takomillashtirish" mavzusida 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini (diplom raqami 01 №001197, 2018-yil 29-dekabr, 260/1), "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning kognitiv mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusida 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha pedagogika bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini (diplom raqami 04 №007155, 2022-yil 30-sentabr, 325/1) himoya qildi.

Umumiy ish staji 27 yil, ilmiy va pedagogik ish staji 25 yil.

Mehnat va ilmiy pedagogik faoliyatining asosiy bosqichlari:

1996–1998-yy. – Samarqand davlat universiteti umumtexnika fanlari kafedra katta laboranti.

1998–2003-yy. – Samarqand davlat universiteti umumtexnika fanlari kafedra o'qituvchisi.

2003–2011-yy. – Samarqand davlat universiteti maxsus sirtqi bo'limi dekani o'rinbosari.

2011–2012-yy. – Samarqand viloyati pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti jismoniy tarbiya, san'at va mehnat ta'limi kafedra katta o'qituvchisi.

2012–2014-yy. – Samarqand viloyati pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti o'quv-metodik ishlar bo'yicha prorektori.

2015–2017-yy. – T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlar ilmiy tadqiqot instituti doktranti.

2017–2018-yy. – Samarqand davlat universiteti pedagogika kafedrasida o‘qituvchisi.

2018–2019-yy. – Samarqand viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi o‘quv va ilmiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari.

2019 y.–h.v. – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi direktori.

A.Ibragimov 2018-yil 3-sentabrdan Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari kafedrasida dars o‘tib kelmoqda.

A.Ibragimov hozirgi kunga qadar 149 dan ortiq ilmiy va ilmiy-uslubiy ishlar chop ettirgan. Jumladan, “Malaka oshirish kurslarida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish va o‘tkazish” (2020), “Pedagogning individual ta’lim trayektoriyasini loyihalash va amalga oshirish” (2020), “Zamonaviy o‘quv mashg‘ulotlarini interaktiv hamda muammoli ta’lim asosida tashkil etish metodikasi va texnikasi” (2022), “Malaka oshirish ta’limida muammoga asoslangan o‘qitish texnologiyasini qo‘llash” (2022) nomli 4 ta uslubiy qo‘llanma, “Kognitiv pedagogika: o‘qituvchini kasbiy rivojlantirish” (2024) nomli darslik hamda respublikamizdagi OAK ro‘yxatiga kiritilgan va xorijiy nufuzli ilmiy jurnallarda 48 ta ilmiy maqola chop ettirgan.

A.A.Ibragimov ish faoliyati davomida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlar o‘rtasida sog‘lom ma’naviy raqobat muhitini shakllantirish, yoshlarning mafkuraviy immunitetini oshirish va boshqa qator muammolar yechimiga oid bir qancha tadbirlarni tashkil etib keladi.

A.Ibragimov pedagogik faoliyati davomida davlat tili fani, o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari yo‘nalishi malaka oshirish kurs tinglovchilariga “Ta’limda ilg‘or xorijiy tajribalar”, “Kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish”, “Ta’limda boshqaruv”, “Jamoatchilik va ota-onalar bilan ishlash”, “Pedagogning kasbiy rivojlanishi va o‘zaro hamkorlik”, “O‘quv jarayonini samarali tashkil etish” o‘quv modullaridan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni olib boradi. O‘quv yuklamasida belgilangan soatlarni to‘liq bajaradi. Mashg‘ulotlarni zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda taqdimotli, audiovizual va multimedia ta’lim resurslaridan foydalangan holda olib boradi. A.Ibragimov o‘quv jarayonini tashkil etishda mutaxassislik fanlarini o‘qitishga doir ishchi reja, dasturlar tuzib, kasbiy va qayta tayyorlov kurslaridagi bitiruv malakaviy ishlariga rahbarlik qiladi va ularni qabul qilish ishlarini tashkil etadi.

A.Ibragimovning tashabbusi bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5712-sonli Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida pedagogika markazni 2025-yilgacha aniq maqsadli rivojlantirish bo‘yicha 38 ta ko‘rsatkich hamda belgilangan vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xarita”si ishlab chiqildi.

A.Ibragimovning rahbarligida pedagogika markazida “Ta’limda kognitiv tadqiqotlar va muammoga asoslangan o‘qitish” ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi tashkil etilgan bo‘lib, uning qoshida xalqaro hamda respublika ilmiy-amaliy konferensiyalari samarali o‘tkazilib kelinmoqda. 2021-yilda 2 ta, 2022-yilda 2 ta hamda 2023-yilda 3 ta, 2024-yilda 1 respublika va xalqaro ilmiy-amaliy onlayn, an’anaviy konferensiyalar o‘tkazilgan hamda mas’ul muharrirligida anjuman to‘plamlari chop etilgan. Shu bilan birga “Fan, ta’lim va amaliyot

integratsiyasi” respublika ilmiy-metodik jurnalining bosh muharriri sifatida ham faoliyat olib bormoqda.

A.Ibragimov xalqaro ilg‘or tajribalarni o‘rganishga va ularni malaka oshirish tizimida samarali qo‘llashga doir muammolar yuzasidan o‘zaro nazariy va amaliy bilimlar almashishda o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. Masalan, Markazda xalqaro hamkorlik aloqalari, ilg‘or tajribalarni o‘rganish keng yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, Singapur Respublikasi “Six Clouds PTE. LTD” kompaniyasi asoschisi va rahbari Woon Hwee Kiat, trener-o‘qituvchilar Noel Loh Hwei Ming, Woon Hwee Kiat, Calina Chew Hooi San, Benson Lek Hong Khim bilan hamkorlikda “Design thinking” (“Fikrlashni rivojlantirish”) va “Problem based learning” (Muammoga asoslangan ta’lim) nomli qisqa muddatli maqsadli o‘quv kurslari tashkil etildi.

Amerikaning Vermont shtatidan STEAM yondashuv va xalqaro baholash dasturi bo‘yicha trenerlar Allan Miller va Joan Smith hamkorligida ishlab chiqilgan “NEGA (Nuturing Engagement and Growth for All) – STEM” loyihasi asosida uch kun Pedagogika markaz professor-o‘qituvchilari hamda maktab o‘qituvchilari uchun o‘quv-seminarlar va mahorat darslari tashkil etildi.

Rossiyaning A.I.Gersen nomidagi davlat pedagogika universiteti dotsenti E.V.Fedosenko bilan “Zo‘r” (“Klass”) loyihasi doirasida rus tilini xorijiy til sifatida o‘qitish bo‘yicha malaka oshirish tizimida maqsadli kurs va seminarlar tashkil qilindi.

Pedagogika markaziga Italiyalik dotsent Andrea Gallo, Seul Milliy universitetining Seul volontyerlar Dasturi bo‘yicha volantiyer Li Jong Woo, Hindiston Anna universiteti professori janob Wishvanathan Kodakkallarning bilan hamkorlikda o‘quv-seminarlari va mahorat darslari tashkil etilishida bosh-qosh bo‘ldi.

Pedagogika markazi rejasi bo‘yicha viloyat, tuman va Pedagogika markazi miqyosida ham seminar-treninglar tashkil qiladi. Tadbirlarda o‘z fikr-mulohazalari bilan qatnashib, buyuk pedagoglarimizning ta’lim sohasiga qo‘shgan hissasi, boy ma’naviy merosi, ularda odob-axloq qoidalari, maktabgacha va maktab ta’limi muassasalarida sog‘lom ma’naviy va ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish, uning nufuzi hamda obro‘-e’tiborini ko‘tarish va asrab-avaylash, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni malakasini oshirishda ko‘maklashish, umumta’lim maktablarining jamiyatdagi hamda ta’lim tizimidagi nufuzini yanada oshirishdan iborat ekanligi bo‘yicha ma’ruzalar bilan qatnashib kelmoqda.

A.Ibragimovning ilmiy va mehnat faoliyatidagi yutuqlarini inobatga olgan holda uni professorlik unvoni berilishi maqsadga muvofiq degan xulosaga kelindi.

Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasida dotsenti v.b. Kadirov Tulkin Baxridinovichni dotsentlik ilmiy unvoniga tavsiya etish to‘g‘risida.

Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasida dotsenti ilmiy unvoniga nomzod Kadirov Tulkin Baxridinovich haqida ma’lumot:

Umumiy ish staji 18 yil. Shundan Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazidagi staji 8 yil. 2024-yil 3-yanvardan – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasida v.b. dotsent vazifasida ishlab kelmoqda.

T.B.Kadirov 2023-yil 2-mayda Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli Ilmiy kengash 13.00.01–Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi ixtisosligi (p.f.d., prof. A.X.Maxmudov rahbarligida) “Uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilarining mediakompetentligini rivojlantirish texnologiyasi (ijtimoiy fanlar misolida)” mavzusida pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini muvafaqqiyatli himoya qilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi

tomonidan 2023-yil 4-iyulda pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) darajasi berilgan.

Kadirov Tulkin Baxridinovich Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi, uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslari uchun 2023-2024-2025 o'quv yillarida Ona tili va adabiyoti, Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari, Musiqa madaniyati ta'lim yo'nalishi tinglovchilariga "Ta'limda raqamli texnologiyalar" fanidan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarini o'tgan. Yuqoridagi barcha modullardan namunaviy o'quv reja va dastur asosida ishchi o'quv dasturlarni ishlab chiqqan, hamda barcha kerakli metodik materiallarni o'z ichiga olgan o'quv-uslubiy majmualarni tayyorlagan.

Pedagogik markaz va kafedraning ish rejasi asosida belgilangan muddatda Samarqand viloyati shahar va tumanlaridagi umumta'lim maktablariga borib, joylarda malaka oshirishdan keyingi faoliyatni o'rganish, ta'lim sifatini oshirish hamda reyting ko'rsatkichini ko'tarish maqsadida seminar, mahorat darslarini o'tkazishda o'zining ijodkorligi bilan boshqa o'qituvchilarga o'rnak bo'lib kelmoqda.

T.B.Kadirov 2014-2024-yillardagi faoliyati davrida o'nlab ilmiy-uslubiy anjuman va seminarlarda ma'ruzalar bilan qatnashib, respublika, viloyat va shahar miqyosida o'tkazilayotgan turli konferensiyalar va tadbirlarni tashkil etish, o'tkazishda faollik bilan o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Shuningdek, kafedra tomonidan tashkil etilgan "O'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim: dastlabki natijalar, muammolar va istiqboldagi rejalar" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya, "Ta'limda xalqaro baholash tadqiqotlari: amaliyotdagi muammolar va istiqboldagi vazifalar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkilotchilaridan biri.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda AQSH Xalqaro taraqqiyot agentligi, Trayangi tadqiqot institutining O'zbekiston Respublikasidagi filiali bilan hamkorlikda 2023-yil 25-30 avgust kunlari "O'zbekistonda barkamollik uchun ta'lim dasturi" doirasida informatika va axborot texnologiyalari fanidan tashkil etilgan treningda faol ishtiroki uchun sertifikat bilan taqdirlangan.

T.B.Kadirov o'quv mashg'ulotlarini zamonaviy o'qitish usullari (Cavendish Marshall Education, STEAM yondashuv, Xalqaro baholash dasturlari, 4K va 5E ko'nikmalari) axborot kommunikatsiya texnologiyalari (VR – virtual reallik), sun'iy intellekt hamda multimedia resurslaridan foydalangan holda olib boradi. Shuning bilan birga, T.B.Kadirov Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasida yuritiladigan hujjatlarni yuritishda faol, Informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilariga fanni o'qitishning dolzarb masalalari bo'yicha ma'ruzalar va davra suhbatlarini tashkil etib kelmoqda. T.B.Kadirov tinglovchilar orasida o'tkazilgan anketa so'rovnomalarida markaz bo'yicha yuqori natijalarni qo'lga kiritgan.

T.B.Kadirov O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini tashkil etish" to'g'risidagi 246-son buyrug'i asosida Markaz professor-o'qituvchilari va xodimlari uchun haftaning har juma kuni tashkil etiladigan "Kasbiy rivojlanish kuni" tadbirlarida "Ilmiy va o'qitish metodikalariga doir zamonaviy tadqiqotlar yuzasidan" o'zining "Wordwallda elektron ta'lim resurslarini yaratish texnologiyasi" nomli ma'ruzasi bilan faol ishtirok etgan.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 17-martdagi "O'qituvchilarning ilg'or tajribasi va faoliyati davomida qo'llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 89-son buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida Pedagogik markaz direktori chiqargan buyruqqa ko'ra T.B.Kadirov viloyatdagi aniq fanlar yo'nalishi kengash a'zosi qilib tasdiqlandi.

T.B.Kadirovning hozirgi vaqtdagacha 40 ga yaqin ilmiy-uslubiy ishlari chop etilgan. Shulardan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi himoyasidan keyin 14 tasi dissertatsiya himoyasidan keyin nashr etilgan bo'lib, 1 ta monografiya, 1 ta o'quv qo'llanma, OAK ro'yxatiga kiritilgan respublikamizdagi va xorijiy nufuzli jurnallarda 7 ta maqolasi chop etilgan.

Umuman olganda, T.Kadirov 2014-2024-o'quv yillarida markazning faol o'qituvchilardan biri bo'lib ishlab kelmoqda. Shu yillar davomida har yili Informatika va axborot texnologiyalari yo'nalishi tinglovchilari bilan o'tkaziladigan turli xil ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda hamda kafedraga yuklatilgan boshqa tashkiliy ishlarda faol ishtirok etgan. Shaxsiy tashabbusiga ko'ra haftaning payshanba kunlari markaz tinglovchilari uchun tashkil qilinadigan tongi tadbirlarda "Biz kelajak yaratamiz", "Mening IQ darajam" tongi tadbirlarini tashkil qilib kelmoqda.

O'ziga berilgan har qanday vazifani vijdonan va sharaf bilan bajara oladi.

Yuqoridagilar muhokama etilib va Markaz Kengashi

QAROR QILADI:

1. Markaz direktori v.v.b. S.Murodovning "Pedagogik markaz professor-o'qituvchilarini ilmiy unvonga tavsiya etish to'g'risida"gi axboroti ijro uchun qabul qilinsin.

2. "Professor ilmiy unvoniga tavsiya etish to'g'risida":

2.1. Pedagogik markaz Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasini professori v.b. Ibragimov A'lamjon Amrilloevichni professor ilmiy unvoniga tavsiya etish to'g'risida"gi axborot ijro uchun qabul qilinsin.

2.2. Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasini professori v.b. Ibragimov A'lamjon Amrilloevichni nomzodi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasiga professor ilmiy unvonini olish uchun tavsiya etilsin.

2.3. Pedagogika markazi Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasini professori v.b. Ibragimov A'lamjon Amrilloevichni professorlik diplomini olish uchun Kengashga taqdim etilgan hujjatlari OAKga taqdim etilsin.

3. "Dotsent ilmiy unvoniga tavsiya etish to'g'risida":

3.1. Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasini dotsenti v.b. Kadirov Tulkin Baxridinovichni dotsent ilmiy unvoniga tavsiya etish to'g'risida"gi axborot ijro uchun qabul qilinsin.

3.2. Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasini dotsenti v.b. Kadirov Tulkin Baxridinovichni nomzodi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasiga dotsent ilmiy unvonini olish uchun tavsiya etilsin.

3.3. Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasini dotsenti v.b. Kadirov Tulkin Baxridinovichni dotsentlik diplomini olish uchun Kengashga taqdim etilgan hujjatlari OAKga taqdim etilsin.

4. Hujjatlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirish Kengash kotibi D.Yunusova va inson resurslarini rivojlantirish bo'yicha bosh mutaxassis B.Ashurova zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror ijrosi nazoratini o'z zimmasiga qoldiraman.

Kengash raisi

Kengash kotibi



S.Murodov

D.Yunusova